




Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 % o'sdi. Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 29,7 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,7 % ga o'sdi.



Tumanlarning o'sish sur'ati

2019 yanvar-dekabr

*2019-yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)*


2018-yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'ati Olmazor (123,1 %), Yakkasaroy (112,4 %), Shayxontohur (115,1 %), Sergeli (108,2 %) va Yunusobod tumanlarida (106,2 %) qayd etildi. Ayrim tumanlarda jumladan, Yashnobod tumanida 100,1 % nisbatan past ko'rsatkich sezilgan.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 1 870,8 mld. so'mni tashkil etdi va 107,3 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiylajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi




Umumiylajmida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiylajmida eng katta ulush Yunusobod (16,0 %), Shayxontohur (14,2 %), Yakkasaroy (5,2 %), Sergeli (16,0 %) tumanlari tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod (4,5 %), Uchtemir (6,1 %) va Uchtepa (3,3 %) ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 29,7 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor (17,6 %), Shayxontohur (11,6 %), Olmazor (6,3 %) va Uchtepa tumanlari (9,6 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

***Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining ulushi
(jamiga nisbatan, foizda)***





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 12 353,0 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir (86239,5 ming so'm), Chilonzor (26938,2 ming so'm), Yakkasaroy (21750,4 ming so'm), Mirobod (22812,2 ming so'm) Uchtepa (13362,6 ming.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'sish sur'ati
Toshkent sh	14 832,7	105,4
Uchtepa	13 362,6	98,1
Bektemir	86 239,5	98,6
Yunusobod	12 661,4	104,1
Mirzo Ulug'bek	7 864,1	102,3
Mirobod	22 812,2	105,4
Shayxontohur	12 892,6	113,3
Olmazor	6 571,8	121,1
Sergeli	17 436,0	103,0
Yakkasaroy	21 750,4	111,0
Yashnobod	9 844,5	96,4
Chilonzor	26 938,2	107,2




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)




2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 14 832,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,4 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sish Olmazor (121,1 %), Yakkasaroy (111,0 %), Mirzo Ulug'bek (102,3 %) va Mirobod (105,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Bektmir (98,6%) hamda Yashnobod (96,4 %) tumanlarida qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasidan)



Kichik korxona va mikrofirmalarning jami chakana savdo tovar aylanmasida ulushi eng katta bo'lgan tumanlar: Mirobod (45,0 %), Chilonzor (24,6 %), Mirzo Ulug'bek (40,8 %) va Sergeli (40,8 %) tumanlari. Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkich Uchtepa (19,2 %) va Bektemir tumanlari (10,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 38 682,8 mlrd. so`mni yoki 2018-yilning shu davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalar 30 200,2 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,1 % ni tashkil qildi.





Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p ulushi Shayxontohur (95,8 %), Uchtepa (92,2 %), Bektemir (78,0 %) va Mirobod tumanlariga, (86,7 %) eng past ulush esa Yakkasaroy (72,7 %), Olmazor (69,4 %) va Sergeli tumanlariga (66,4 %) to'g'ri kelgan.

*Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji
savdodagi ulushi (jami savdoga nisbatan, %)*






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr


Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Mirzo Ulug'bek - 12,8 %, Olmazor - 12,8 %, Yakkasaroy - 12,5 %, Mirobod - 11,0 %, Chilonzor - 12,5 % tumanlari tashkil etgan bo'lsa, ba'zi bir tumanlar ya'ni Yashnobod (7,2 %), Sergeli (7,6 %), Uchtepa (5,1 %), Bektemir tumanlarida (1,5 %) jamiga nisbatan eng past ko'rsatkich qayd etildi.



**Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji tovar
aylanmasidagi ulushi
(jamiga nisbatan foizda)**




Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori bo'lgan tumanlar: Mirzo Ulug'bek - 9,9 %, Mirobod - 9,5 %, Yakkasaroy - 9,1 %, Olmazor - 8,9 % va Chilonzor - 8,9 % tumanlari. Eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida (1,3 %) qayd etilgan.



Umumiy tovar aylanmasining 11 919,5 mldr so'mini yakka tartibdag'i tadbirkorlar tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilning shu davriga nisbatan 7,6 % ga ko'paygan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 31,6 % ga teng bo'ldi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda)
tarkibi, foizda**
(2019 yanvar-dekabr holatiga)






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr


Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Sergeli tumani - 33,6 %, Olmazor tumani - 30,6 %, Yakkasaroy tumani - 27,3 %. Ba'zi tumanlar ya'ni Shayxontohur tumanida 4,2 %, Uchtepa tumanida 7,8 %, Bektemir tumanida 6,7 % ko'rsatkichlar qayd etildi.



**Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi
(jamiga nisbatan foizda)**



Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor tumani - 48,9 %, Yakkasaroy tumani - 52,9 %, Olmazor tumani - 39,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani - 4,2 %, Uchtepa tumani - 9,8 %, Yunusobod tumani - 3,9 % bilan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi



Ma'lumot uchun telefon: 71-230 88 20
71-230 88 21